Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 811.512.133'25 811.111'25
ORCID:0009-0009-8967-4151

ORNITONIMLARNING METOFORIK XUSUSIYATLARI

Maxmudova Nargiza Ravshanovna
FarDU, katta o'qituvchisi
E-mail: nr.mahmudova@pf.fdu.uz

Annotatsiya. Qushlar nomi eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha butun san'atda, jumladan rasm va haykaltaroshlikda, adabiyotda, musiqada, teatrda, an'anaviy raqs va baletda, kinoda eng qadimgi davrlardan rasm, haykaltaroshlik va boshqa san'at buyumlarida, jumladan, g'or rasmlarida tasvirlangan.

Uchayotgan jonzotlar sifatida qushlar doimo odamlarning e'tiborini jalb qilganligi sababli, ular ko'plab afsonalarni, qushlarga ba'zi ramziy ma'noga ega bo'lgan afsonalarni ixtiro qildilar. Odamlar qushlarning xatti-harakatlari va turmush tarzini sinchkovlik bilan kuzatib, ular orasidagi ba'zi munosabatlarni va tabiat, ob-havo va ba'zan odamlar taqdiridagi o'zgarishlarni ko'rishga harakat qilishdi.

O'zbek va ingliz tillari o'xshatish, metafora, maqol va matallarga boydir. Masalan, inglizlar hayvonlarni yaxshi ko'radigan xalqdir va bunga qushlar ham kiradi. Qushlar insoniyat hayotining katta qismini tashkil etganligi sababli, idiomatik tilimizga qushlar metafora, maqol va iboralar shaklida kirib kelganligi ajablanarli emas. Paremiologik va frazeologik birliklar xalqning tarixiy va madaniy tajribasini eng yorqin aks ettiruvchi har qanday til leksikologiyasining alohida qismidir. Ular leksik birliklarga qaraganda boshqacha, ancha murakkab ma'noga egadir.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi ornitonim komponentlari bilan ularning metoforik xususiyatlari hamda frazeologik va paremiologik birliklarni chog'ishtirgan holda tahlil qilishga harakat qilanadi. Qushlarning ba'zi nomlari ingliz va rus tillarida ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Xuddi shu ornitonim bir tilda ijobiy bahoga ega bo'lishi mumkin, ikkinchisida esa salbiy baho bitta yoki bitta tilda ijobiy va salbiy bo'lishi mumkinligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: metafora, o'xshatish iboralar zoonimik birliklar, ornitonimlar, semantik-struktur tahlil, ornitonimlarning lug'aviy tarkibi, onomatopik ornitonimlar.

МЕТАФОРИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОРНИТОНИМА

Аннотация. Названия птиц присутствуют в искусстве с древнейших времен и до настоящего времени, включая живопись, скульптуру, литературу, музыку, театр, традиционный танец и балет, кино, а также на предметах искусства, таких как изображения в пещерах, отраженные на фотографиях.

Птицы всегда привлекали внимание людей как летающие существа, и о них было создано множество мифов и легенд, придающих птицам символическое значение. Люди внимательно наблюдали за поведением и образом жизни птиц, пытаясь увидеть в них закономерности, связанные с природой, погодой и даже с жизнью людей.

Узбекский и английский языки богаты сравнениями, метафорами, пословицами и поговорками, что отражает важность птиц в жизни людей. Например, британцы, как народ, любящий животных, в том числе птиц, активно используют орнитонимы в языке. Поскольку птицы занимают значительную роль в жизни человека, они вошли в идиоматический язык,

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

где часто встречаются метафоры, пословицы и выражения. Паремиологические и фразеологические единицы, относящиеся к птицам, составляют важную часть лексикологии каждого языка и ярко отражают исторический и культурный опыт народа. Эти единицы имеют более сложное значение, чем обычные лексические слова.

Данная статья направлена на анализ орнитонимов в английском и узбекском языках, их метафорических особенностей, а также фразеологических и паремиологических единиц. В статье рассматривается, как названия птиц могут иметь как положительные, так и отрицательные коннотации в разных языках. Объясняется, что один и тот же орнитоним может иметь положительное значение в одном языке и отрицательное — в другом, а в некоторых случаях он может быть одновременно как положительным, так и отрицательным в одном языке.**Ключевые слова:** метафора, сравнительные выражения, зоонимические единицы, орнитонимы, семантическая структура, лексическая структура орнитонимов, звукоподражательные орнитонимы.

METAPHORICAL FEATURES OF ORNITHONYMS

Abstract. The name of birds has appeared in all art from the earliest times to the present, including painting and sculpture, literature, music, theater, traditional dance and ballet, film, and from the earliest times in painting, sculpture and other art objects, including cave depicted in the pictures. Since birds have always attracted people's attention as flying creatures, they have invented many myths, legends that have some symbolic meaning for birds. People carefully observed the behavior and lifestyle of birds, trying to see some relationships between them and changes in nature, weather, and sometimes people.

Uzbek and English languages are rich in similes, metaphors, proverbs and sayings. For example, the British are a people who love animals, and that includes birds. Since birds form such a large part of human life, it is not surprising that birds have entered our idiomatic language in the form of metaphors, proverbs and expressions. Paremiological and phraseological units are a separate part of the lexicology of any language that most vividly reflects the historical and cultural experience of the people. They have a different and more complex meaning than lexical units.

In this article, an attempt is made to analyze the components of ornitonyms in English and Uzbek and their metaphorical features, as well as phraseological and paremiological units. Some names of birds can be positive or negative in English and Russian. It is explained that the same ornitonym can have a positive value in one language and a negative value in another, or that it can be both positive and negative in one language.

Key words: a metaphor, simile expression, zoonymic units, ornithonyms, semantic-structure, lexical structure of ornithonyms, onomatopoeic ornithonyms

KIRISH. Inson xususiyatlarini belgilash uchun qushlar nomlarini majoziy ma'noda ishlatishning ko'plab shakllari mavjud. Bularga metafora, o'xshatish yoki iboralar kiradi. Qush nomi bilan bog'liq atamalarning bunday majoziy ma'noda qo'llanilishining umumiy xususiyati shundaki, qush nomi gap yoki nazarda tutilgan mazmunning manbasi bo'lib xizmat qilsa, odam uning maqsadini ifodalaydi. Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasida metafora inson ongining kognitiv tuzilishini aks ettiruvchi tilning muhim elementi sifatida qaraladi. Konseptual metaforadan foydalanish atributlar to'plamini manba domenidan maqsadli domenga o'tkazishni o'z ichiga oladi [1].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan konseptual metaforalar manba va maqsad belgilariga

bevosita bog‘langan konnotatsiyalarni misol qilib keltirishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Odamlarning xulq-atvori yoki fe’l-atvorini baholash ko‘pincha qushlar timsoli orqali ifodalanar ekan, o‘rganilayotgan tillarda odamlarning noo‘rin xatti-harakatlarini tanqid qilishga ko‘proq ahamiyat berilishi kuzatiladi. Darhaqiqat, tanqidlar har doim eslab qolish his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va uzoq vaqt davomida xotirada saqlanib qoladi, ijobiy hodisalar esa odatdagidek qabul qilinadi. Xuddi shu narsa ornitonimlar tarkibiy qismlariga ega bo‘lgan frazeologik birliklarida namoyon bo‘ladi: odamning noma’lum xatti-harakatlari tanqid qilinadi. Masalan, laylakning yurishini qilaman deb chumchuqning puti / oyog‘i ayrilibdi iborasi birovlarga ko‘r-ko‘rona ergashib, qo‘lidan kelmagan ishga zo‘r berishining yomon oqibatini ifodalaydi. Bu o‘rinda “laylak” va “chumchuq” ornitonimlari, aslida, insonlar ma’nosini anglatuvchi majoziy ifodalardir.

Ayrim tillarda qushlarning belgilanishi juda ko‘p salbiy ma’noga ega. Ba’zi hollarda, bir xil ornitonim turli tillarda turli xil baho semalariga ega bo‘lishi kuzatiladi. Xuddi shu tildagi ba’zi ornitonimlar ijobiy va salbiy konnotativ ma’noga ega bo‘lgan frazeologik birliklarning bir qismi sanaladi. Masalan, oq kabutar ijobiy ma’noga, boyo‘g‘li, ko‘rshapalak esa salbiy ottenkaga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ornitonimlarning metaforik qo‘llanilishini o‘rganish inson xususiyatlarini aniqlash uchun o‘ziga xos hayvon atamalarining konnotatsiyalariga murojaat qiladigan tilga xos madaniy modellarni yoritishi mumkin. Qushlarning nomlari metaforalaridan foydalanishni tahlil qilish, odatda, muayyan jamiyatning hukmron madaniy modeli haqida muhim tushunchaga ega bo‘lishga olib keladi. Bundan tashqari, bunday tadqiqot til universallarining kognitiv tamoyillarini aniqlashga yordam beradi.

Odamlarga murojaat qilish uchun qushlar ishtirokidagi metaforalardan foydalanish ko‘plab tadqiqotlarda kuzatilgan. Ushbu tadqiqotlarning ba’zilari qiyosiy xarakterga ega bo‘lib, ya’ni madaniyatlararo tahlillarni hosil qiladi. Bunda ornitonimlarning majoziy ishlatilishining pragmatik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Ikkilamchi semantika biz taqqoslaydigan til madaniyatlari o‘rtasida ko‘plab kognitiv o‘xshashliklarni namoyon qiladi. Ornitonomik so‘zlar guruhi insonning hissiy va ma’naviy hayotining barcha sohalarini to‘liq qamrab oladigan metafora semantikasi tarkibiga muayyan munosabatlarni singdiradi. Shuning asosida ornitonimlarda madaniy qarashlarning “ko‘chishi”, ya’ni bir tildan ikkinchi tilga o‘tishi kuzatiladi. Ornitonimlar maqsadli atamalar hisoblanib, ikki til tomonidan kodlangan o‘ziga xos madaniy parametrlarga ta’sir qilishi mumkin. Tahlillari shuni ko‘rsatdiki, hayvon nomlari ishtirokidagi metaforalardan foydalanish hayvonlarning tashqi ko‘rinishi va ularning xatti-harakatlari, shuningdek, tilga xos, madaniy va atrof-muhit omillari kabilar bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi.

Turli tillarda zoonim metaforalari o‘rganilar ekan, unda gender munosabatlari ham sezildi. Bunda ornitonimlarning ona jinsiga mansub nomlari, odatda, mehr bilan emas, balki haqoratomuz tarzda ishlatilganligi aniqlandi. Masalan, g‘oz, kurka, o‘rdak, tovuq kabi qushlarning nomlari qo‘pollik, johillik, soddalik, ahmoqlik va beparvolikning salbiy xususiyatlarini aks ettirish uchun ishlatilgan.

Erkak jinsiga mansub qush nomlari ko‘proq ijobiy xususiyat kasb etib, insonlar kabi oila boshlig‘i, ta’minotchi sifatida shakllanadi. Tillardagi stereotip va arxetiplarni lingvokulturolik jihatdan tahlil qilgan L.Borisova shunday yozadi: “O‘rganilayotgan qushlar nomi, shuningdek, prototip nazariyasi ostida tahlil qilinganda, eng ko‘p prototipli qushlardan eng kamigacha

bo‘lgan davomiylikni hosil qiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, prototip qushlar (masalan, robinlar va kolibrilar) kichik o‘lchamdagi, patlar bilan qoplangan va ucha oladigan mavjudotlardir. Ushbu xususiyatlarning bir yoki bir nechtasiga ega bo‘lmagan qushlar (masalan, pingvinlar va tuyaqushlar) kamroq prototip hisoblanadi”[2].

Har ikki tilda o‘xshash atributlarni ifodalash uchun ishlatiladigan qush nomlaridan biri to‘tiqush ornitonidir. To‘tiqush ornitonimi ingliz tilida “ko‘p gapiradigan, gaplarni yodlab oladigan, ammo so‘zning ma’nosini tushunmasdan takrorlashga moyil bo‘lgan erkak yoki ayolga murojaat qilish uchun ishlatiladi (a person who, without thought or understanding, merely repeats the words or imitates the actions of another)[3]. Aksincha, o‘zbeklarda ayollarga To‘tixon deb ism qo‘yish odati bor.

Lochin ornitonimi. Yuqorida aytganimizdek, yirtqich qush nomidir. Ammo o‘zbeklarda farzandlarga ism sifatida lochindek ziyrak, ko‘zi o‘tkir, chaqqon, tezkor farzand bo‘lsin deb qo‘yiladi: Lochinbek – dovyurak, qo‘rqmas, epchil bola. Lochinoy – lochindek ziyrak va oydek ko‘rkam qiz. Lochinxon – -xon qo‘shimchasi hozirgi o‘zbek tilida qizlar ismiga, ba’zan bolalar ismiga qo‘shib ham aytiladi.

Yoki, burgut ornitonimi, asosan, Osiyo mamlakatlarida kuchli, erkin, tezkor, jasur, o‘ziga ishongan va mag‘rur erkak kishiga nisbatan qo‘llaniladi. Shunga o‘xshash xususiyatlar ingliz ma’lumotlarida yuqorida aytib o‘tilgan qush nomlari mavjud, ammo farq shundaki, ba’zi hududlarda bu ijobiy xususiyatlarni erkaklarga emas, balki ayollarga nisbatan qo‘llanilishi kuzatiladi.

Lochin va burgut ornitonimlaridan farqli o‘laroq, boyo‘g‘li ornitonimidan foydalanish Osiyo mamlakatlarida asosan salbiy xususiyatlarni qamrab oladi, u mash’um, sevilmagan, xunuk, pessimistik, omadsiz, salbiy va yovuzlik ma’nolarida aks etadi. Ingliz tilida so‘zlashuvchilar bu qush nomlarini insonlardagi ijobiy xususiyatlarni ko‘rsatish uchun ishlatadi. Masalan, G.Potterning sarguzashtlarida Heduig nomli boyo‘g‘li Garriyning dono do‘sti sifatida gavdalantirilgan.

Kishilar fe’l-atvorining salbiy xususiyatlarini ifodalovchi yana bir qush atamasi qarg‘a leksemasidir. Ushbu qush nomi ko‘pincha ingliz va o‘zbek ertaklari yoki maqollarida foydalanilgan. Ikki til o‘rtasida umumiy narsa shundaki, ularda asosan salbiy xususiyatlarni bildirish uchun qarg‘adan foydalanadilar. Bunday sifatlarga misollar orasida pessimistik, mash’um yoki jirkanch bo‘lish, shuningdek, yoqimsiz ovozga ega bo‘lish kiradi:

Qarg‘aning ovozidek yoqimsiz ovoz eshitildi.

Ghastly grim and ancient Raven wandering from the Nightly shore—

Tell me what thy lordly name is on the Night’s Plutonian shore!”

Quoth the Raven “Nevermore.” (E.A.Poe, The Raven).

Qarg‘a ornitonimidan farqli o‘laroq, xo‘roz ornitonimi ham Amerika, Britaniya va O‘zbekistonda erkaklarni ijobiy ma’noda tasvirlash uchun tez-tez ishlatiladi. Shuningdek, mazkur ornitonim ingliz tilida inson xarakterining tomonlarini (masalan, takabburlik, zerikarli, qaysarlik, yoki erta uyg‘onishga moyillik va baland ovozli bo‘lish), tashqi ko‘rinish (soch turmagini nazarda tutadi) va yashash holatidagi o‘xshashlikni (oilasi bo‘lgan odamlar) ifodalaydi. O‘zbeklarda xo‘roz ornitonimidan foydalanishda yetakchilik, jasurlik, tirishqoqlik, takabburlik va erta tongda uyg‘onish xususiyatlarini bildiradi. Shuningdek, kichik yoshli o‘g‘il bolalarni erkalatishda, ruhlantirishda ham “xo‘roz” atamasi qo‘llanadi.

Kurka ornitonimi. Ba’zi tadqiqotlarda, ingliz tilida so‘zlashuvchilar asosan kurka uchun salbiy xususiyatlarni belgilashlari aniqlangan. Bunday sifatlarga ahmoqlik,

beadablik, beparvolik misol bo‘la oladi. Biroq, o‘sha tadqiqotlarda bu qush nomi asosan erkaklarga emas, balki ayollarga nisbatan qo‘llanilishini aniqlangan. Kurka o‘zbek va ingliz tillarida so‘zlashuvchilar tomonidan erkak va ayollarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbek va ingliz tillarida turli sifatlarni ifodalovchi qushlarning yana bir nomi chumchuqdir. Ingliz tilida so‘zlashuvchilar yomon yoki chaqqon odamga nisbatan chumchuq ornitonimini ishlatishadi, o‘zbeklarda esa yaxshi odamlarga murojaat qilish uchun bu qush nomi deyarli ishlatilmaydi. Ingliz tilida o‘zbek tilida so‘zlashuvchilardan farqli o‘laroq, “boshqalarning ishiga aralashaveradigan” qiziquvchan odamlarga murojaat qilishda qizilishton ornitonimidan foydalaniladi. O‘zbek tilida bu qush nomi bilan bog‘liq kishilar sifati uchramaydi.

Tuyaqush ornitonimi bir nechta xususiyatlarni birlashtiradigan qush nomlaridan biridir. Bu qush nomi ingliz tilida baland bo‘yli, bo‘yni uzun, zo‘ravon, qo‘pol, ahmoq, beparvo yoki tez odamga nisbatan qo‘llaniladi. O‘zbek tilida bu qush nomi bilan bog‘liq kishilar sifati uchramaydi.

Bir nechta xususiyatlarni ifodalovchi boshqa qush nomi - kaptar ornitonimidir. Amerika va Britaniya xalqlari tomonidan kaptar ortinomini orqali tasvirlangan odamlar tinch, osoyishta, yoki kambag‘al, uysiz yohud pok odamlardir. O‘zbek tilida bu qush nomi bilan bog‘liq kishilar sifati uchramaydi. Lekin, kaptar termini tinchlik va xurramlik ramzi sifatida simbolik strukturada qo‘llaniladi.

Bulbul va kanareyka ornitonimlari. Ko‘rinib turibdiki, bu atamalar sayroqi qushlarni bildirmoqda. Ushbu qushlarning nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlar insonning tashqi ko‘rinishi va xarakterining ijobiy tomonlarini bildiradi. Buning ajablanarli joyi yo‘q, bu qush atamalari, birinchi navbatda, jismonan jozibali, yoqimli ko‘rinishga va yoqimli ovozga ega bo‘lgan odamga murojaat qilish uchun ishlatiladi.

XULOSA. Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, odamlarning fe’l-atvorini baholash ko‘pincha qushlar timsoli orqali ifodalanar ekan, o‘rganilayotgan tillarda odamlarning noo‘rin xatti-harakatlarini tanqid qilishga ko‘proq ahamiyat berilishi kuzatildi. Bunda to‘tiqush, boyo‘g‘li, qarg‘a, qizilishton kabi qush nomlari salbiy konnatatsiyani ifodalash uchun ishlatilishi aniqlandi.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda qush nomlari ishtirokida ko‘plab maqol va matallar mavjud. Odatda qushlar haqidagi maqol va maqollarda mazmun ko‘pincha majoziy ma’noda yetkazilishi, ya’ni bu do‘stona maslahat, dars yoki chiroyli metaforik tasvir orqasida yashiringan dars bo‘lishi mumkinligi, shuningdek, bunday ma’no oddiy maishiy mavzularga ham, yuksak axloqiy tamoyillarga ham tegishli bo‘lishi kuzatildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lakoff G and Johnsen M., Metaphors we live by. – London, The university of Chicago press, 2003

2. Борисова Л. В. Репрезентированные в языке стереотипы и архетипы традиционного народного сознания как объекты лингвокультурологического исследования (русско-чувашские параллели) //Вестник Чувашского университета. –2014. – № 3. С. 73 –79.

3. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/parrot